
"HARBIYLAR HAYOTINING BIR KUNI" LOYIHASI DOIRASIDA HARBIY QISMDA "OCHIQ ESHIKLAR KUNI" TASHKIL ETILDI



"HARBIYLAR HAYOTINING BIR KUNI" LOYIHASI DOIRASIDA HARBIY QISMDA "OCHIQ ESHIKLAR KUNI" TASHKIL ETILDI

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz yoshlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida bugun Sarikanda mahallasi yoshlar yetakchisi Hayitboy Hasanov tashabbusi asosida tumandagi 12494-sonli harbiy qismda "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlardan yana biri yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishdan iborat.

Ushbu loyiha doirasida mahalla yoshlari harbiylar hayoti bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarga harbiy qurol-aslahalarni haqida ma'lumotlar berildi va ularning bu mavzudagi qiziqtirgan turli savollariga ham birma-bir javob berildi.

Harbiy qismdan olam-olam taassurot olgan yoshlar mashg'ulotlar orqali ilk harbiy ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-15 19:38:30